



KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIK ASOSIDA DARSLARNI TASHKIL ETISH TAMOYILLARI VA PEDAGOGIK MULOQOTNI RIVOJLANTIRISH KO'NIKMALARI

Maxfuza Maxamadjonovna Xalilova

Musiqqa ta'limi kafedrasida katta o'qituvchisi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Iroda Xusan qizi Abdullaeva

Musiqqa ta'limi yo'nalishi talabasi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: *Maqolada - pedagogik muloqot turlarini aniqlash, shuningdek, muloqotning nafaqat ta'lim ma'lumotlarini uzatish usuli sifatida, balki va talabalarga qanday ta'sir qilish kerak. Kommunikativ kompetentlik asosida o'qituvchining ta'lim jarayonining tashkilotchisi sifatidagi ko'nikma va malakalari.*

Kalit so'zlar: *Pedagogik muloqot, kommunikativ kompetensiyalar, nutq vositalari, ta'lim jarayoni, idrok, tushunish, shaxsiy aloqa.*

Pedagogik muloqot — pedagogik ta'sirning ajralmas sifatidir. Bu o'qituvchi va o'quvchining ta'lim-tarbiya jarayonidagi professional muloqoti bo'lib, unda ma'lumot almashinadi va o'quvchilarga o'quv tarbiyaviy ta'sir o'tkaziladi. Bunda ikki yoqlama muloqot yuzaga kelishining asosi sifatida o'zaro hurmat va ishonch xizmat qiladi. Pedagog o'quvchilar bilan muloqotga kirishish jarayonida ulardan hurmat kutadi. O'quvchilar ham o'qituvchidan hurmat va ishonchni talab etadilar. Bu pedagogik ta'sirning samarali yo'li bo'lib, tajribali pedagoglar bolaning o'z-o'zini hurmatlashiga asoslangan holda munosabatlarni tashkil etadilar va shu orqali o'zaro munosabatlarni amalga oshiradilar. Muloqotning o'ziga xos 3 ta darajalari mavjud. Bular: makro darajada (katta) — insonlar bilan muloqot qilish barcha odob-axloq normalariga suyangan holda amalga oshiriladi. Mezo darajada (o'rta) — muloqot ma'lum mavzu asosida kechadi (masalan, askiyada ma'lum mavzudan chekinmaslik). Mikro daraja (kichik) — muloqotning oddiy shakllari, savol-javob tariqasida yuz beradi. Muloqotning turlari: shaxslararo (inson-inson), shaxsiy-guruh (guruh-guruh), ommaviy kommunikatsiya (radio, televideniye, ro'znomalar va oynomalar) kabi turlari mavjud.

A.S.Makarenko fikricha o'qituvchi muloqoti hurmat va talabchanlikka asoslangan munosabat bo'lishi kerak.

V.Suxomlinskiy aytadiki: "Maktab hovlisida gapirilganda har bir so'z o'ylangan aqli, maqsadga qaratilgan bo'lishi kerak". O'qituvchi so'zi faqat quloqqa emas, balki yurakka ham qaratilgan bo'lishi kerak.

O'quvchi o'qituvchisiga do'stiga, o'rtog'i va ustoziga bo'lgani kabi munosabatda bo'lishi kerak. O'qituvchi o'quvchi munosabati do'stlikka asoslanishi lozim.



Umuman ilg'or pedagoglar fikricha ta'lim faqat hamkorlik pedagogikasi pozitsiyasida bo'lishi kerak.

Pedagogik muloqotning tarkibiy qismlari uning vazifalari, o'qituvchining o'quvchilar va kasbdoshlari bilan o'zaro aloqalari vositalari hamda usullari, muloqot xarakteriga baho berishdan iborat bo'ladi. Muloqot vazifalari o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: o'quvchiga yangi ma'lumot berish yoki fikr almashish; o'qituvchi bilan o'quvchilarning bir – birlarini o'zaro bilishlari; bir – birlarining hulqlarini tuzatish va boshqarish; muloqot har bir ishtirokchisi shaxsining imkoniyatlarini ochish va undan foydalanish, ularning o'z oldilarida turgan muammolarini o'zlari mustaqil hal etishlari; o'qituvchi shaxsiy fikrining pedagogik jihatdan maqsadga muvofiqligi; muloqot ishtirokchilarining bir – birlaridan qanoat hosil qilganliklari va xakozo

Pedagogik muloqotning boshqa jihati – uning vositalari va usullaridir:

Vositalar tashkil etuvchi, baho beruvchi, intizomga undovchi (instruksiya, intizomini baholash va tanbeh berish) bo'lishi mumkin. Adabiyotlarda o'qituvchi, o'z ishining ustasi ekanligi ta'kidlanib, intizomga undovchi vositalarga nisbatan tashkiliy ta'sir ko'rsatishga ko'proq yondashiladi. Ha, umuman, bunday o'qituvchida ta'sir ko'rsatishlar soni hamkasbdoshlariga qaraganda ancha kam, bu esa uning darslarida o'quvchilar uchun «kommunikativ fazo» bo'shab qoldi, demakdir.

Muloqot usuli sifatida shakllangan uslub amalda o'zining uchta shakli bilan namoyon bo'ladi: bilimlarni egallashda o'qituvchi bilan o'quvchilarning birgalikda hamkorlik qilishlari (demokratik uslub), o'qituvchining o'quvchilarga tazyiq o'tkazishi va ularning aktivligini ro'yobga chiqarmasligi (avtoritar uslub), o'qituvchining o'quvchilarga nisbatan neytral munosabatda bo'lishi va uning hal etilayotgan masaladan chetga chiqishi (liberal uslub);

1. Muloqotdagi vaziyat bir xil o'zaro harakatni («yonidan» moslashish), boshqa ishtirokchiga tazyiq o'tkazishni («yuqoridan» moslashish), boshqa ishtirokchiga muvofiqlashishni («quyidan» moslashish) o'z ichiga oladi.

2. Muloqotda emotsional tus berish xarakteri neytral hol orqali ijobiydan salbiygacha o'zgaradi. Bularning hammasi muloqot muhitini, sinfda ma'lum iqlimni yaratadi.

3. Yetuk pedagogik muloqot o'qituvchining – o'z-o'zini, muloqot jarayoni va natijalarini nazorat qilib borishni nazarda tutadi.

4. To'g'ri tashkil etilgan pedagogik muloqot davomida o'qituvchida tanlangan vositalarni vazifa va sharoitlarga muvofiqligining o'lchovi sifatida tushuniladigan pedagogik nazokat mujassamlanadi.

Pedagogik muloqotda qanday o'ziga xos qiyinchiliklar mavjud? Bu, eng avvalo, muloqot maxsus vazifalarining yo'qligidir, natijada o'qituvchi pedagogik muloqotni o'z mehnatining alohida tomoni sifatida qaramaydi, uni rejalashtirmaydi, muloqot usullarni takomillashtirib bormaydi, ayrim hollarda muloqotning barcha vazifalarini o'zaro tushunmasliklari, muloqot vositalarining qashshoqligi, bir xildagi va jozibador emasligi ham uchrab turadi. Masalan, o'quvchilarning tor doiradagi intizomga



chaqiruvchi, emotsional jihatdan salbiy tus berilgan muloqot ularga ko'pincha aks ta'sir keltirib chiqaradi. Pedagogik muloqot usullari ustida ishlashning asoslangan dasturini tuzish uchun har bir o'qituvchi o'zining qiyinchiliklarini tahlil qilib chiqishi muhim rol o'ynaydi.

Pedagogik muloqotga doir barcha mashqlarning umumiy yo'nalishini mavjud pedagogik vaziyatlarda malaka hosil qilish, har bir muloqot ishtirokchisining imkoniyatlarini ochib berishga ko'maklashuvchi, uning shaxsiy hislatlarini rivojlanib borishini ta'minlovchi vash u muloqot orqali qoniqtiradigan va hokazo vositalaridan foydalanishni tashkil qiladi. Bunga bir qator mashqlar imkon tug'dirishi mumkin:

1. Muloqotda boshqa kishining sub'ektiv qarashlarini aniqlash; bu odam bilan muloqotda oqilona hal qilinishi zarur bo'lgan vazifalarni aniqlash, masalan, uning hulqini tuzatish yoki unda shunchaki ishonch kayfiyatini yaratish;

2. Mazkur vaziyat uchun o'zaro harakterlarning optimal (eng maqbul) vositalari majmuasi (uslub, tutilgan yo'l va hokazo)ni belgilash;

3. Muloqotda boshqa kishining javob harakati imkoniyatini oldindan ko'ra bilish. Boshqa odamda psixologik to'siq va qarshilik keltirib chiqaruvchi vositalarni qo'lga kiritish;

4. Rezervda vaziyatning o'zgartirishiga qarab foydalanish mumkin muloqotlarning bir nechta modeliga ega bo'lish;

5. O'zida boshqa odamlarni tinglash, uning fikrlariga qo'shilish, unga hamdardlik ko'nikmasini rivojlantirib borish. Muloqot natijalarini baholash va ularni foydalanilgan vositalar bilan taqqoslash.

Pedagogik faoliyat va pedagogik muloqot xarakteri o'qituvchi shaxsi, uning qarashlarida, nuqtai nazarlarida, hulqida namoyon bo'ladigan g'oyaviy - siyosiy saviyasi, professional tayyorgarligi va bilishga intilishi bilan uzviy bog'liq. Bu asosiy xislatlardan tashqari o'qituvchining umumiy va boshqaruv qobiliyati, uning moyilligi, xarakteri, muvaqqat psixik holatlari, shuningdek to'plangan tajribasi muhimdir. O'qituvchi shaxsini xarakterlash uchun faoliyatning individual uslubi kabi yig'ma ko'rsatkichlar, jumladan individual faoliyat uslubi (mazkur kishining individual - psixologik xususiyatlariga mos keluvchi pedagogik faoliyat va pedagogik muloqotning vazifalari, vositalari va usullarining barqaror birligi) dan ham foydalaniladilar; ijodiyot (masalan, novator o'qituvchidagi kabi, mazkur o'qituvchi uchun sub'ektiv yangi, shuningdek pedagogika fani uchun ob'ektiv yangi pedagogik faoliyat va pedagogik muloqotning yangi vazifalari va vositalarini izlash va topish); ijtimoiy faol tutilgan yo'l vaziyat (o'qituvchi dalilining ta'sirchanligi, uning so'zi bilan ishi birligi). yetuk shaxs har doim bundan keyingi rivojlanishi uchun kurashadi, bu hol o'qituvchiga ham taaluqli. SHaxsning professional jihatdan o'z - o'zini tarbiyalash yo'llaridan biri - o'zining sifat va hislatlarini, shuningdek pedagogik faoliyat va muloqotlarning barqaror xususiyatlarini, o'quvchilarning ta'lim olganligi va tarbiyalanganligidagi erishilgan natijalarni tahlil qilib borishdan iboratdir.



Pedagogik muloqot funksiyalari. Pedagogik muloqot sotsial - psixologik jarayon sifatida quyidagi funksiyalari bilan xarakterlanadi: shaxsni bilish; axborot almashinish; faoliyatni tashkil etish; rollar bilan almashish; boshqalar uchun qayg'urish; o'zini tasdiqlash.

Muloqotning axborot almashish funksiyasi materiallar va qadriyatlar bilan almashish jarayonini ta'minlab, hamkorlikdagi izlanish muhitini, o'quv tarbiya jarayoni uchun qulay sharoit yaratadi.

O'qituvchi ta'lim - tarbiya jarayoniga shaxsiy rolli shakl kiritadi: o'quvchilarni darsning turli elementlarini bajarishga jalb etadi, o'quvchilarga tashkilotchi va ijrochi rollarida qatnashishga imkoniyat beradi.

Muloqot shaxsni o'zini tasdiqlash funksiyasini ham bajaradi. Pedagogning vazifasi o'quvchiga o'zining "Menligi"ni anglashga o'zining shaxsiy ahamiyatini bilishga, o'ziga baho berishga o'rgatishi kerak.

Rollar almashinishi yordamida muloqot o'rnatish esa, ularda u yoki bu ijtimoiy shakllanib qolgan hatti-harakatni dasturlaydi (o'qituvchi-o'quvchi).

Ijtimoiy rollar almashinuvi shaxsni har tomonlama namoyon bo'lishini ta'minlaydi, niqobni olib tashlab boshqa kishi rolga kirish va shu bilan insonni inson orqali idrok qilish jarayoniga ta'sir ko'rsatadai. O'qituvchilar o'quv-tarbiyaviy jarayonda shaxs-rol shaklidan foydalanadilar, darsning ayrim elementlarini bajarishga o'quvchilarni taklif qiladilar, har bir o'quvchini o'qituvchi rolini bajarishga imkon beradilar. O'z shaxsi qimmatini namoyon qilish ham muloqot funksiyasi sifatida namoyon bo'ladi. Bunda o'quvchilar tomonidan o'z shaxsi (men) ni, qadrqimmatini, shaxsini munosib baholash va kelajagini tasavvur eta olish uchun intilishlarini ta'minlash o'qituvchining asosiy vazifasidir.

Pedagogik muloqotda ijodiylik quyidagilarga bog'liq:

— o'quvchilar bilan o'zaro birgalikda harakat qilish
— bolaga ta'sir qilishda uning xulq-atvorini boshqarish, o'zaro harakatning turli yo'llarini qo'llash;

— o'qituvchining o'z-o'zini boshqara olishi;

— o'zaro munosabatlar jarayonidagi ijodiylik xarakterini saqlay bilish.

Demak, o'qituvchi o'quvchilar bilan ziddiyatlarga borsa, qandaydir muammo tug'ilsa darhol hal qilishi lozim. Pedagogik muloqotdagi ijodiylik ham shunda bilinadi. Pedagogik muloqotda o'qituvchi bolaning ko'ziga qarab uning xayolidan nima kechayotganligini bilib olishi kerak. Ijodiylik o'zaro munosabatlardan boshlanadi. Har bir pedagog o'z tajribasidan, uslubidan kelib chiqib bolalar bilan muloqotda bo'lishi, nostandart usullarni izlab topishi kerak. Pedagogik ta'sir ham pedagogik muloqotdagi ijodiylik orqali amalga oshiriladi. Ijodiylikni amalga oshirish uchun quyidagilarga ahamiyat berish lozim:

— bir necha o'qituvchilarning darslarini kuzatish, unda o'quvchilarning kayfiyatini, o'qituvchining bolalar bilan bo'ladigan munosabatlarini o'rganish;



— o'qituvchining darsda qanday usullarni qo'llashi, muloqotni qanday tashkillashtirish, o'quv-tarbiyaviy muammolarni yechishini aniqlash;

— o'zining muloqot texnologiyasini boshqa o'qituvchining texnologiyasiga taqqoslashi;

— tajribali o'qituvchilarning tarbiyaviy soatlarida qatnashish orqali muloqot jarayonidagi o'quvchilarning individual xususiyatlarini aniqlash;

— o'zining darsidagi muhit bilan boshqa tajribali o'qituvchining darsidagi muhitni taqqoslash orqali xulosa chiqara olish.

Kasbiy-pedagogik muloqot — murakkab hodisa. Shaxs kasbiy pedagogik muloqot qilishdan avval o'z oldiga bir necha vazifalarni qo'yadi. Jumladan, muloqot maqsadini, muloqot qachon, qayerda, necha yoshlilar bilan o'tkazilishini rejalashtiradi. Pedagogik muloqotning eng muhim bosqichi — modellashtirish hisoblanadi. Bu bosqichdan muhim, mas'uliyatli muammoni hal qilishda foydalaniladi. Masalan, darsga tayyorlanish, ma'ruzani rejalashtirish ham shu bosqichga kiradi. Birinchidan, dasturga mos ravishda dars loyihasi tuziladi. Ikkinchidan, o'quvchilarning individual xususiyatlari hisobga olinadi. Uchinchidan, dars jarayonida qo'llanadigan ta'limtarbiya usullari tanlanadi. To'rtinchidan, bolaning aqliy rivojlanish qobiliyati hisobga olinadi. Ikkinchi bosqich — bevosita muloqot bosqichi. Buni «kommunikativ hujum» deb atash mumkin. Chunki o'qituvchi tashabbusni to'liq o'z qo'lga olib dars boshlaydi. Uchinchi bosqich esa muloqotni boshqarish bosqichi bo'lib, kasbiy kommunikatsiyaning muhim tarkibiy qismidir. Kasbiy-pedagogik muloqotning vazifasi — texnologiyani o'zlashtirish bo'lib, unda o'qituvchi iliq munosabatlarni qo'llay oladi, natijada pedagog shaxsi namoyon bo'ladi. Darsda tashabbusni qo'lga olish usullari quyidagilardan iborat:

— sinf bilan aloqani yo'lga qo'yishda zudlik bilan harakat qilish;

— tashkiliy ishlardan dars jarayonining muhim bosqichiga tezlik bilan o'ta olish;

— sinfning ijtimoiy-psixologik yakdilligini, «biz» hissini shakllantirish;

— vaziyatga qarab bolalar bilan muloqot usullarini qo'llash;

— butun sinf jamoasi bilan yaxlit aloqani tashkillashtirish;

— latofat, samimiylik, sofdillikni o'zida shakllantira olish, darsda namoyon qila olish;

— taqiqlangan pedagogik talablarni kamaytirish, vaziyatga qarab ish tutish;

— mimika (yuz ifodasi), pantomimika (harakatlar), ko'z bilan ta'sir qilish (noverbal muloqot) ni faol qo'llash;

— o'zaro bir-birini tushunishni his qilish (V.A. Kan Kalik).

Kasbiy-pedagogik muloqotning muvaffaqiyatli bo'lishida o'qituvchining kommunikativ madaniyati muhim o'rin egallaydi. Bola o'qituvchining dildan gapirayotganligini his qilib turishi kerak. Aks holda ishonchli, samimiy muloqot amalga oshmaydi. Ayrim pedagoglar bolalar bilan ularning yoshini hisobga olmasdan muloqotda bo'ladilar. O'qituvchi bola katta bo'layotganligini sezib tursa, bu uning muloqot madaniyati shakllanayotganligidan dalolat beradi.



Pedagog kommunikativ madaniyatga erishish uchun quyidagilarga ahamiyat berishi lozim:

- bolani sabr-toqat bilan tinglash madaniyati;
- unga qiziqarli bo'lmasa ham bolani diqqat bilan tinglash; — bola zerikayotganligini sezib, mavzuni boshqa qiziqarli tomonga burib yuborish;
- suhbatlashishdan awal bolaning kayfiyatini ko'tarishga harakat qilish;
- bozor iqtisodiyotiga mos keladigan muloqot madaniyatini o'zlashtirishni ta'minlash. O'qituvchi o'zi uchun boshqalar bilan bo'ladigan muloqotning yaxlit portretini tuzib olishi kerak. Bu auditoriya bilan bo'ladigan munosabatlarni tashkil qilishiga yordam beradi. Pedagogik muloqot — o'quv jarayonining muhim qismi hisoblanadi.

Shaxsning o'z-o'zini tarbiyalashida pedagogik muloqotchanlikning ahamiyati O'qituvchi, tarbiyachi va pedagog kommunikativ faoliyati pedagogik faoliyatdagi muloqotda muhim rol o'ynaydi. Kommunikativ ko'nikma quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

1. Kishilar bilan muloqotda bo'lish ko'nikmasi;
2. O'quvchilar bilan birgalikdagi ijodiy faoliyatni tashkillashtirish ko'nikmasi;
3. Maqsadga yo'naltirilgan muloqotni tashkillashtirish va boshqara olish ko'nikmasi (o'quvi). Kommunikativ qobiliyatlarining asosiy tarkibiy qismi muloqotchanlikning turlicha namoyon bo'lishidir. Muloqotmand kishilar oson, tezkorlik bilan muloqotni tashkillashtiradilar. Bunday kishilar har doim kommunikativlikning markazida turadilar. Pedagogik faoliyatdagi muloqotchanlik shaxsiy fazilat sifatidagina emas, balki kasbiy-shaxsiy fazilat sifatida ham yuzaga chiqadi. Muloqotchanlik ko'p qatlamli bo'lib, uni quyidagi tarkibiy qismlarga bo'lish mumkin:

- 1) muloqotga kirishuvchanlik — kommunikatsiya jarayonidan qoniqishni his qila olish qobiliyati;
- 2) ijtimoiy yaqinlik — jamiyatda bo'lishga xohish, kishilar orasida bo'lish istagi;
- 3) altruistik (boshqalar manfaati uchun harakat qilish, yordam berish) yo'nalishlar.

Muloqotga kirishuvchanlik. Pedagogik faoliyatni tashlab ketgan o'qituvchilardan so'rovnoma asosida olingan ma'lumotlarga ko'ra, ularda muloqotchanlik sifatleri kasbiy fazilat sifatida shakllanmaganligi aniqlangan. Shu jumladan, kuchsiz rahbarda ham xuddi shunday holat kuzatilgan. Pedagogik faoliyatdagi muloqot uzoq, davomli muloqotdir. Ijtimoiy yaqinlik vaqtinchalik ruhiy holat sifatida emas, balki shaxsning kasbiy-pedagogik yo'nalishi bilan bog'liq holda ishtirok etadi. Muloqotchanlik shaxs fazilati sifatida pedagogik muloqotning mahsuldor bo'lishini ta'minlaydi. Muloqotchanlikning uchta tarkibiy qismini ko'rib chiqish lozim: muloqotga ehtiyoj, muloqot paytida va muloqotdan keyin yaxshi kechinmalar his qilish, kommunikativ ko'nikma va malakalar. Muloqotchanlik hissiy tabiatga ega bo'lib, ular kommunikativ va altruistik hislardir. Kommunikativ hislarga fikr almashish, hayajonlanish, simpatiya



(yoqtirish) his qilish, muloqotda bo'layotgan hamsuhbatni hurmat qilish kabilar kiradi. Altruistik hislar esa kishilarga quvonch keltirishni xohlash, boshqalar quvonchidan xursand bo'lish, hamdardlik bildirish kabilardan iborat. Pedagogning kommunikativ faoliyatiga uning qobiliyatlari ham kiradi. Jumladan, didaktik (mavzuni tushunarli, sodda tilda bayon qilib bera olish), hissiy-irodaviy ta'sir eta olish, perseptiv — pedagogik kuzatuvchanlik asosida o'quvchi ruhiyatiga ta'sir qilish, ekspressiv — nutqiy, mimika, pantomimika asosida fikmi tushuntirish, kommunikativ — o'quvchilar bilan munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish, pedagogik odob va xushxulq, talabchanlik kabilar. Ko'rinib turibdiki, barcha pedagogik qobiliyatlar kommunikativ qobiliyatlar bilan bog'liq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ахмедов, Б. (2018). Oliy ta'lim muassasalarida chet tili o'rganish jarayonida elektron ta'lim kurslarini qo'llash tamoyillari. Toshkent davlat pedagogika universiteti, 1(1), 51-56.
2. Ахмедов, Б. А. (2023). Таълим жараёнида масофавий таълим муаммолари ва ечимлари. PEDAGOG, 1(5), 93-97.
3. Akhmedov, B. A. (2022). Using of Information Teaching Technologies in the Teaching Physics in Higher Education. NeuroQuantology, 10(10), 524-536.
4. Akhmedov, B. A., & Jakhongirova, Y. J. (2022). Methodology of teaching english: approach of national way. Uzbek Scholar Journal, 10, 218-224.
5. Ахмедов, Б. А. (2022). Повышение питательности завтрака с помощью биодобавок для укрепления здоровья студентов. Uzbek Scholar Journal, 11, 7-11.
6. Ахмедов, Б. А. (2021). Таълимда ахборот технологиялари фанининг модулларини ўқитишда кластерли-инновацион технологиялардан фойдаланиш тамойиллари. O'zbekiston respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, 441(15), 18-21.
7. Dehqonova, M. G., Xusnuddinova, Z. X. (2023). Inklyuziv ta'limda ko'rishida muammosi bo'lgan o'quvchilar bilan olib boriladigan korreksion pedagogik ish samaradorligini oshirish. Maktab va hayot, 1(3), 31-35.
8. Xusnuddinova, Z. X. (2023). Alohida ehtiyojli boshlang'ich sinf o'quvchilarining og zaki nutqini rivojlantirishda yangi metodikalar va ulardan foydalanishning amaliy asoslari. Ta'lim tizimida yangi metodikalar va ulardan foydalanishning amaliy asoslari, 1(1), 365-368.
9. Qodirova, F. U., Xusnuddinova, Z. X. (2023). Inklyuziv ta'limga jalb qilingan zaif ko'ruvchi o'quvchilarning psixologik xususiyatlari. Inklyuziv ta'limning dolzarb masalalari: muammo va ularning echimlari respublika ilmiy-amaliy konfrensiya materiallari, 1(1), 156-157.



10. Qodirova, F. U., Xusnuddinova, Z. X. (2022). Increasing the profitability of the learning environment through the organization of adaptive learning. *NeuroQuantology*, 1(20), 1217-1224.
11. Qodirova, F. U., Xusnuddinova, Z. X. (2022). Ixtisoslashtirilga davlat ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish orqali o'quvchilarni inklyuziv ta'limga tayyorlash. *International Journal of Philosophical Studies and Social Science*, 1(1), 365-368.
12. Хуснуддинова, З. Х. (2022). Эмоционально - выразительное озвучивание произведений как фактор воспитания незрячих детей. *Воспитание детей дошкольного возраста, Воспитание детей дошкольного возраста*, 1(1), 55-59.
13. Zulayho, X. (2022). Ko'rishida nuqsoni bor bolalarning korreksion mashg'ulotlar ish tizimini tashkil etish. *Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali*, 1(1), 218-220.
14. Zulayho, X. (2022). Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan korreksion ishlarni tashkillashtirishda ilk qadamni tashlash. *Ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali*, 1(2), 80-82.
15. Xusnuddinova, Z. (2022). Corrective pedagogy for blind children cluster mechanisms to increase work efficiency. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 12(2), 68-70.
16. Сейтниязов, К. М. (2023). Некоторые виды трансформации топонимов. *Science and Education*, 4(2), 1700-1704.
17. Сейтниязов, К., Шерипова, Г. (2020). Топонимларнинг классификация турлари. *Республикалық Илимий-теориялық онлайн конференция*, 1(1), 70-72.
18. Seitniyazov, K. M., & Baltabayev, O. O. (2020). Methods for toponymical research of objects. *Fan va jamiyat*, 1(1), 28-29.